



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD
RAXMATULLAYEVICH**
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**
Правовые вопросы ведения интернет-
ресурсов представительных органов
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**
Функции нотариата в современном
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA
O'KTAMOVNA**
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./AQH09178>

UDC: 34(042)(575.1)

HUQUQIY EKSPERIMENTNI O'TKAZISH BOSQICHLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrası

dotsenti v.b., PhD

ORCID: 0000-0003-3804-7210

e-mail: xayitov085@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy eksperiment tushunchasi, uning turlari hamda tasnifi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari milliy va xorij tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni uch bosqichda amalga oshirish taklif etilgan bo'lib, eksperiment o'tkazishga mas'ul bo'lgan subyektlar doirasi ham milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosatining, islohotlarining tegishli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholashda muhim bo'lgan asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi. Huquqiy eksperimentning har bir bosqichi mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlar va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanishi, uning ahamiyati hamda muhimligi asoslantirildi. Maqolada huquqiy eksperiment yuzasidan xulosa va takliflar ilgari surilgan. Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyektlarining ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: eksperiment, huquqiy eksperiment, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihasi, huquqiy eksperiment subyektlari, mas'ul subyektlar, huquqiy eksperiment bosqichlari, tartibga solish ta'sirini baholash.

ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАВОВОГО ЭКСПЕРИМЕНТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хайитов Шерзод Рахматуллаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе национального и зарубежного опыта анализируются понятие правового эксперимента, его виды и классификация, а также этапы проведения правового эксперимента. В частности, предлагается осуществлять подготовку и проведение правового эксперимента в три этапа, при этом круг субъектов, ответственных за проведение правового эксперимента, освещается в рамках национального законодательства. Было отмечено, что проведение правового эксперимента положительно влияет на соответствующую сферу государственной политики, реформы, однако выявлены некоторые проблемы, препятствующие использованию правового эксперимента. Из определения правового эксперимента выделены основные характеристики, важные для оценки его эффективности.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./RHFk9005>
UDC: 331.109.648(045)(575.1)

HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY AHAMIYATI

Xakberdiyev Abdumurad Abdusaidovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-8959-6944
e-mail: a.haqberdiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Hakamlik sudlari, bizningcha, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Kuchli fuqarolik jamiyatisiz zamonaviy huquqiy davlatning mavjud bo'lishi va faoliyat yuritishi mumkin emas. Rivojlangan G'arb davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolar va tadbirkorlar hakamlik sudlariga juda ijobiy munosabatda bo'ladilar. Chunki hakamlik jarayonlari fuqarolik va iqtisodiy faoliyatdagi nizo hamda boshqa muammolarni tez hamda samarali hal qilish uchun yaratilgan. Binobarin, ayni damda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida hakamlik sudi institutini keng rivojlantirish nihoyatda zarurdir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda vakolatli sudlardan tashqari nizolarni muqobil tartibda hal qilishda hakamlik sudlari tomonidan ham fuqarolik va iqtisodiy nizolar bo'yicha ishlarning ko'rib chiqilishida turli muammolar uchrab turibdi. Maqolada hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi va huquqiy ahamiyati masalasi xorijiy tajribani tahlili qilgan holda o'rganib chiqilgan. Shuningdek, hal qiluv qarorini ijroga qaratishda hakamlik sudining vakolatli (davlat) sudlar bilan o'zaro munosabati, uning tartibi va kamchiliklari o'rganib chiqildi. Shu bilan bir qatorda, hal qiluv qarori tushunchasiga mualliflik ta'rifi berildi va mediatsiya tartib-taomilini qo'llash yuzasidan milliy qonunchiligimizga taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: hakamlik sudi, vakolatli sud, hakamlik muhokamasi, da'voni ta'minlash, arbitraj, mediatsiya, normativ-huquqiy hujjat, qonun, kodeks.

ПОНЯТИЕ И ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРЕТЕЙСКОГО РЕШЕНИЯ

Хакбердиев Абдумурад Абдусайдович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Третейские суды, на наш взгляд, являются одним из основных институтов гражданского общества. Современное правовое государство не может существовать и функционировать без сильного гражданского общества. Опыт развитых западных стран показывает, что граждане и предприниматели весьма положительно относятся к третейским судам, поскольку третейские процессы призваны быстро и эффективно разрешать споры и другие проблемы в гражданско-экономической деятельности. Поэтому в условиях дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в нашей стране крайне необходимо широко развивать институт третейского суда. При этом следует отметить, что на сегодняшний день возникают различные проблемы при рассмотрении ряда дел гражданских и хозяйственных споров не только компетентными, но и третейскими судами. В данной статье на основе анализа зарубежного опыта исследуется вопрос понятия и правового значения решения третейского решения. Также изучены

взаимодействие третейского суда с компетентными (государственными) судами, его порядок и недостатки с ориентацией на исполнение решений народа. В соответствии с этим разработаны авторское определение понятия резолюции, предложения и рекомендации относительно применения процедуры медиации в национальном законодательстве.

Ключевые слова: третейский суд, компетентный суд, третейское разбирательство, обеспечение иска, арбитраж, медиация, нормативно-правовой акт, закон, кодекс.

THE CONCEPT AND LEGAL SIGNIFICANCE OF AN ARBITRAL AWARD

Khakberdiev Abdumurad Abusaidovich,

Associate professor of Tashkent State University of Law, PhD

Abstract. Arbitration courts, in our opinion, are one of the main institutions of civil society. A modern legal state cannot exist and function without a strong civil society. The experience of developed Western countries shows that citizens and entrepreneurs have a very positive attitude towards arbitration courts, since arbitration processes are designed to quickly and efficiently resolve disputes and other problems in civil and economic activities. Therefore, in the context of the further deepening of democratic reforms and the formation of civil society in our country, it is extremely necessary to widely develop the institution of arbitration. At the same time, it should be noted that today, in addition to competent courts, various problems arise when considering a number of cases of civil and economic disputes by arbitration courts. This article, based on an analysis of foreign experience, examines the issue of the concept and legal significance of an arbitration award. The interaction of the arbitration court with the competent (state) courts, its procedure and shortcomings in focusing on the execution of the decision of the people has also been studied. In accordance with this, the author's definition of the concept of resolution will be developed, as well as proposals and recommendations for our national legislation regarding the application of the mediation procedure.

Keywords: arbitration court, competent court, arbitration proceedings, securing a claim, arbitration, mediation, normative legal act, law, code.

Kirish

Hakamlik sudining zamonaviy shakllari ni va ularning yakuniy hujjatlarga ta'sirini o'rganishdan tashqari, uning hal qiluv qarori tushunchasi hamda mazmunini aniqlash kerak. Hakamlik sudi hal qiluv qarori tushunchasi va mazmuni an'anaviy ravishda fuqarolik protsessi nazariyasidagi eng mu-nozarali masalalardan biri hisoblanadi. Umu-man, hakamlik muhokamasining mohiyatini aniqlash ko'p jihatdan uning hal qiluv qaroriga bog'liqdir. Doktrinada uning huquqiy tabiatini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar muqarrar ravishda hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan hujjatlarning genezis (kelib chiqish)ini aniqlash zaruratiga duch keladi.

Fuqarolik protsessual huquqi fanida hakamlik muhokamasining huquqiy tabiatidagi

beshta klassik tushuncha ajralib turadi. Ular u yoki bu tarzda hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan qarorlarning xususiyatlariga ta'sir qiladi: shartnomaviy, protsessual (yurisdiksiya), aralash, avtonom va imtiyozli. Shu o'rinda aytish mumkinki, asosan shartnomaviy, protsessual va aralash tushunchalar hakamlik sudi hal qiluv qarorining huquqiy tabiatini asoslash uchun ishlatiladi.

Material va metodlar

Bugungi kunga kelib, hakamlik sudi joylashgan hududdan tashqarida bo'lgan munosabat noaniq, ammo shunga qaramay, hakamlik amaliyoti bizni u bilan hisoblashishga va ko'rib chiqilayotgan tendensiyaga muvofiq samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Shuning uchun bunday sharoitda avtonom nazariya tarafdorlari-

ning millatlararo hakamlik sudini yaratish va hakamlik masalalarini millatlararo tartibga solish bo'yicha takliflari ayni paytda mu-nozarali emas, deb hisoblasak, adashmagan bo'lamiz.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining huquqiy tabiatidagi yana bir qiziq konsepsiya konsessual (ruxsat, yon berish) nazariya hisoblanadi. Ushbu nazariyani ishlab chiqqan ingliz professori Stok uning yordami bilan yuridik shaxsning huquqiy tabiati va faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonuniyligini asosladi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, fuqarolarga o'zlarining farovonligi uchun xavf tug'dirmasdan tadbirkorlik faoliyatini olib borishga imkon beradigan tijoratni rivojlantirish davlat tomonidan imtiyoz hisoblanadi. Tadbirkor davlat oldida qarzdor bo'lganligi sababli, davlat uning faoliyatiga aralashish huquqiga ega edi. Biroq keyinchalik ushbu konsepsiyadan hakamlik sudining huquqiy tabiatini tushuntirish uchun foydalalanish taklif qilindi.

Tadqiqot natijalari

A.G. Kotelnikovning so'zlariga ko'ra, "qonunchilik normalarida ifodalangan davlatning roziligisiz hakamlik (arbitraj) sudini nizolarni hal qilishning samarali usuli sifatida inkor etish qiyin. Hakamlik (arbitraj) bitimini tan olish instituti (Nyu York konvensiyasining 2-moddasi) mohiyatan ko'pgina davlatlar tomonidan hakamlik bitimining huquqiy hodisa sifatida mavjud bo'lishiga imkon bergan imtiyozdan boshqa narsa emas. Ushbu dalillardan so'ng shuni e'tirof etish kerakki, hakamlik sudi hal qiluv qarorining majburiyligi ham, butun hakamlik sudi mexanizmi ham davlat sud hokimiyatining imtiyoziga asoslanadi. Shu bilan birga, hakamlik sudi konsessual nazariyaga ko'ra, turli davlatlarning ko'p tomonlama imtiyozlari bilan bog'liqdir [1, 81-85, b.].

Diana Gorunning fikricha, hakamlik (arbitraj) sudining hal qiluv qarori yurisdiksiyaviy hujjat bo'lib, hakamlik bitimi yoki Ruminiya Fuqarolik protsessual kodeksida

belgilangan norma bo'yicha taraflari tayinlagan hakamlik sudyalari tomonidan qabul qilinadi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun majburiy bo'lib, unga qonuniy kuchga ega bo'lgan va ijro etilishi mumkin bo'lgan yakuniy hukm sifatida qaraladi [2, 57-58 b.].

F.X. Otaxonovning fikriga ko'ra, hakamlik muhokamasi jarayonida taraflar nizoni kelishuv bitimi tuzish orqali ham hal qilishi mumkin. Bunday hollarda hakamlik sudi muhokamani tugatadi va taraflarning iltimosiga ko'ra, agar o'zining e'tirozlari mavjud bo'lmasa, taraflar kelishgan shartlar asosida hakamlik sudi hal qiluv qarorini qabul qiladi. Bunday hakamlik sudi hal qiluv qarori nizoning mohiyatiga ko'ra, har qanday boshqa hakamlik sudining hal qiluv qarori kabi kuchga ega bo'ladi va o'sha qaror kabi ijro etilishi lozim [3, 85-b.].

X.R. Raxmonqulovning fikriga ko'ra, hakamlik sudlari davlat sudlari tizimiga kiritilmagan bo'lsa-da, ular fuqarolik huquqlarini himoya qiluvchi sudlar hisoblanadi. Ushbu sudlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan ular o'rtasida yuzaga kelgan yoki kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish uchun saylanadi [4]. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 10-moddasiga ko'ra, hakamlik sudlarining vazifasi buzilgan yoki nizoli fuqarolik huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, bu davlat hokimiyati tomonidan berilgan imtiyozdan boshqa narsa emas. Bunday imtiyozning berilishidan asl maqsad – vakolatli sudlarning ish yuklamasini kamaytirish, xususi munosabatlarda o'z-o'zini tartibga solishni kuchaytirish, dispozitivlik prinsipini va xohish-iroda tamoyilini amalga oshirishni kengaytirish va hokazolardir. 2006-yildagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) hakamlik sudlari va hakamlik muhokamasi to'g'risidagi namunaviy qonunida belgilanishicha, hakamlik sudi yakka tartibdagi hakamlik sudyasi yoki hakamlik sudyalari tarkibi bo'lib, nizo taraflari o'rtasida tuzilgan

hakamlik bitimi asosida fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal qiladi [5].

Buzilgan yoki nizoli fuqarolik huquqlarini himoya qilish yurisdiksiyaviy va yuridik bo'lmagan shaklda amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning yurisdiksiya shakli ushbu faoliyat turi uchun maxsus vakolatga ega bo'lgan vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilishi, ularning har biriga xos bo'lgan muayyan protsessual faoliyat tartibi, ijro qilinishi va majburiylikka ega bo'lgan huquqiy hujjat chiqarilishi bilan tavsiflanadi. Yurisdiksiyasiz faoliyatda esa huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zlari tomonidan moddiy-huquqiy munosabatlar amalga oshiriladi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning yurisdiksiya shaklidagi umumiy xususiyatlar hakamlik muhokamasi-ga ham xosdir, chunki:

1) hakamlik sudlari, albatta, hakamlik bitimi mavjud bo'lsa, fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish huquqiga ega;

2) ko'rsatilgan nizoni ko'rib chiqish taraflar tomonidan belgilangan protsessual shaklda amalga oshiriladi;

3) nizolarni hal qilish jarayoni ijro qilinishi yakuniy va majburiy bo'lgan hal qiluv qarorini chiqarish bilan tugaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, hakamlik sudlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal qilish bo'yicha faoliyati, shubhasiz, fuqarolik va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishning yurisdiksiya shaklidir.

Amerikalik olimlar – J. Lyu va Karlo Krofflarning qayd etishicha, agar taraflar hakamlik (arbitraj) bitimini imzolagan bo'lsa, unda mazkur bitim bo'yicha hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori majburiydir, ya'ni ular hal qiluv qarorini qabul qilish

va ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladi. Hakamlik muhokamasi va hal qiluv qarori davlat organlaridan mustaqildir: davlat sudlari ishda faqat hakamlik sudi hakamlik bitimiga rioya qilgani holatlari bo'yicha aralashishi mumkin, agar taraflar hal qiluv qarorini bajarmagan bo'lsa, unda vakolatli sud tomonidan ijro etish tartibini tartibga soladi [6].

Yuqoridagi hakamlik sudi faoliyatining huquqni qo'llash xususiyati to'g'risida qayd etilgan ma'lumotlar hakamlik sudining hal qiluv qarorini huquqni qo'llash hujjati sifatida ta'riflash imkonini beradi. Shu o'rinda, S.A. Kurochkin quyidagilarni ta'kidlagan: "Hakamlik sudining hal qiluv qarori fanda ajralib turadigan qonunlarni qo'llash hujjatlarining umumiy xususiyatlariga ega, xususan:

1) hakamlik sudining hal qiluv qarori muayyan huquqiy munosabatlarga taalluqlidir va muayyan shaxslarga qaratilgan vakolatli ko'rsatmani o'z ichiga oladi;

2) hal qiluv qarorida bahsli huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining mumkin bo'lgan va to'g'ri xulq-atvori o'lchovi aniq belgilangan;

3) hal qiluv qarori hakamlik sudining irodasini qonun (davlat irodasi) va taraflarning kelishuvi asosida faoliyat yurituvchi maxsus ijtimoiy shaxs (organ) sifatida ifodalaydi;

4) hal qiluv qarori huquqiy normalarni majburiy ravishda amalga oshirishga va huquqiy munosabatlarni hujjatosti individual tartibga solishga qaratilgan;

5) hal qiluv qarori davlat va xususiy huquq elementlari o'zaro bog'liq bo'lgan majburlashni amalga oshirish usuli sifatida ishlaydi;

6) hal qiluv qarori qonun hujjatlari, hakamlik muhokamasi taraflarining keli-shuvi, hakamlik sudining nizomlari va reglamentlari (mahalliy normativ hujjatlar) tomonidan qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak" [7, 206-b.].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, T.N. Neshatayeva hakamlik sudini nizolash-yotgan taraflarni yarashtirish shakli, deb hi-

soblaydi [8, 862-b.], chunki qoida tariqasida, hakamlik sudlari nizolarni taraflarni yarash-tirish maqsadini ko'zlamay hal qiladi, bunga faqat qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, agar hakamlik sudining hal qiluv qarori jamoat huquqiy sohasiga taalluqli bo'lsa, biz uni odil sudlov hujjatlari bilan teng deb ayta olmay-miz. Konsessual nazariya nuqtayi nazaridan hakamlik sudining hal qiluv qarori va uni qabul qilish oqibatlari faqat davlat tomonidan berilgan imtiyozning natijasidir. Vakolatli sudning hujjatlari esa davlat hokimiyatining bevosita ko'rinishi hisoblanadi.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorlarin-ing huquqiy tabiatini faqat ko'rib chiqilgan tushunchalar orqali oshkor qilish mumkin emas. Aslida, hakamlik sudining hal qiluv qarori yuridik fakt hisoblanadi, ya'ni huquq normalari huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan holatlardir [9, 601-b.]. Hakamlik sudi hal qiluv qarorini yuridik fakt sifatida tahlil qilishning ahamiyati qabul qilingan vakolatli sudning qarori ta'sirida vujudga keladigan, o'zgartiriladigan yoki tugatiladigan huquqiy munosabatlar doirasini ko'rsatishdan iborat.

Avvalo, hakamlik sudining hal qiluv qarori nizoni hal qilish tartibini yakunlaydi va shu nuqtayi nazardan, ushbu hal qiluv qarorini tugatuvchi yuridik fakt sifatida ko'rib chiqish adolatli bo'lib, uning paydo bo'lishi taraflar va hakamlik sudi sudyalari o'rtasidagi munosabatlarni tugatish bilan bog'liq bo'ladi [7, 61-b.]. Bundan tashqari, hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorida ishda ishtirok etmagan shaxslar (uchinchi shaxslar), agar ularning huquq va majburiyatlari mavjud bo'lsa, mazkur hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish yoki uni ijro etish uchun ijro varaqasini berish bo'yicha vakolatli sud hakamlik muhokamasi ishtirokchilari o'rtasida munosabatlarning paydo bo'lishini belgilaydi.

Hakamlik sudining nizo doirasida qabul qilingan hal qiluv qarori bo'la turib, vakolatli sud ushbu nizo bilan bir xil bo'lgan da'vo arizasini qabul qilishni rad etishi yuridik fakt hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 194-moddasi birinchi qismi to'rtinchi bandi va Iqtisodiy protsessual kodeksi 154-moddasi birinchi qismi ikkinchi bandi). Shuningdek, hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, da'vo bo'yicha ish yuritishni qabul qilishni rad etishi ham yuridik fakt hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 194-moddasi birinchi qismi uchinchi bandi va Iqtisodiy protsessual kodeksi 154-moddasi birinchi qismi uchinchi bandi).

Fuqarolik sudi tomonlar o'rtasida ushbu nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilsa, arizani qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga yoxud fuqarolik ishlarini ko'rishni yakunlashga asos bo'ladi [10, 69-, 117-, 125-b.].

Moddiy nizoni hal qiluvchi hakamlik sudining hal qiluv qarori moddiy huquqiy munosabatlarda yuridik fakt bo'lib xizmat qiladi, chunki fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasi huquqiy munosabatlarni tugatish yoki o'zgartirishga ishora qiladi. Ushbu o'rinda hakamlik sudi hal qiluv qarorining konstitutsiyaviy ahamiyati namoyon bo'ladi. Shunday qilib, hakamlik sudi shartnomani bekor qilish to'g'risidagi talabni qondirib, shu bilan sudga, borishdan oldin taraflar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlarni tugatadi. Bunday sharoitda hakamlik sudining hal qiluv qarori nizo taraflarining moddiy huquqiy munosabatlarini tugatishga qaratilgan yuridik fakt sifatida xizmat qiladi. Majburiyat shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi talabni qondirishda ham xuddi analogik vaziyat kuzatiladi, yago-

na farq shundaki, hakamlik sudining hal qiluv qarori huquqni o'zgartiruvchi yuridik fakt sifatida tan olinadi.

Yuqorida qayd etib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, hakamlik sudining hal qiluv qarorini o'rganish boshqa huquqni qo'llash hujjatlaridan ajratib turadigan quyidagi bir qator xarakterli xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi:

- hakamlik sudining hal qiluv qarori, o'z navbatida, huquqni qo'llash akti bo'lib, uni boshqa yurisdiksiya organlarining huquqni qo'llash hujjatlaridan farqlash uchun uni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan organning xususiy-huquqiy xususiyatini ta'kidlash kerak;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori tomonidan belgilangan tartibda, agar ko'rsatilgan tartib amaldagi qonun hujjatlarining imperativ qoidalariga zid bo'lmasa, qabul qilinadi;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori tomonidan belgilangan tartibda saylangan yoki tayinlangan hakamlik sudi sudyalari tomonidan qabul qilinadi;

- hakamlik muhokamasi fuqarolik huquqlarini himoya qilishning universal usuli emasligini inobatga olgan holda, fuqarolik-huquqiy munosabatlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hakamlik sudi hal qiluv qarorining predmeti bo'lishi mumkin, agar hakamlik bitimi yoki shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma sharti mavjud bo'lsa;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori taqdim etilgan nizoni mazmuni bo'yicha to'liq yoki uning biron-bir qismini hal qiladi;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori yakuniy xususiyatga ega bo'lib, u qabul qilingan paytdan e'tiboran kuchga kirishini nazarda tutadi, buning natijasida uni mohiyati bo'yicha qayta ko'rib chiqish mumkin emas, normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan bir qator o'ziga xos jihatlar bundan mustasno;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori vakolatli sud tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori xususiy shaxslarning faoliyati natijasi bo'lgani sababli, uni ijro etish, odatda, ixtiyoriylik asosida amalga oshirilishini, aks holda, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanishini ta'kidlash lozim;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori ham protsessual huquqiy fakt, ham moddiy-huquqiy ahamiyatga ega.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining ajralib turadigan xususiyatlari bizga umumiy tushuncha orqali mantiqiy qoidalarga muvofiq tuzilgan va bir xil turga kiruvchi tushunchalar bilan taqqoslagan holda aniqlangan tushunchaning o'ziga xos farqlarini ta'kidlab, unga umumlashtirilgan mualliflik ta'rifni berishga imkon beradi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori – fuqarolik-huquqiy va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni mohiyatan (to'liq yoki biron-bir qismi) yakuniy hal etish natijalari bo'yicha tomonidan saylangan yoki tayinlangan hakamlik sudi sudyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan huquqni qo'llash akti hisoblanadi. U amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda ijro etilishi lozim bo'lgan (ixtiyoriy va majburiy) ham protsessual, ham moddiy-huquqiy munosabatlarda yuridik fakt, vakolatli sud tomonidan cheklangan miqdordagi asoslar bo'yicha alohida ish yurituv tartibida bekor qilinishi mumkin bo'lgan hujjatdir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hakamlik sudining hal qiluv qarori bo'yicha tahliliy natijalardan kelib chiqqan holda, nizolarni muqobil tartibda hal etish usuli sifatida mediatsiya tartib-taomilini qo'llashning ham ahamiyatini e'tiborsiz qoldirishni maqsadga muvofiq emas deb topdik. U. Tvining mediatsiya bo'yicha taraflarning kelishuvga erishishi alohida ahamiyatga ega ekanini bayon qilib, "nizo hal etilganli-

gi”, “kelishuvlar” yoki “ish tugashi” deb ataladigan tushunchalar ko‘pincha muayyan nizo yoki ishning oxiri emasligini, bu yerda ishtirokchilar o‘rtasida, ayniqsa, munosabatlar davom etayotgani muhim hisoblanishini ta’kidlagan [11, 380-392 b.].

S. Maripovanning qayd etishicha, nizolarni muqobil (sudgacha) hal qilish usuli yordamida nizolashuvchi tараflarga xolis, betaraf mediator o‘zaro maqbul kelishuvga erishishda yordam beradi, lekin u nizo bo‘yicha qaror qabul qilishga va taraflarning hech biriga maslahat berishga haqli emas [12, 38-b.]. Olimaning fikrlari juda o‘rinli ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hakamlik sudlari tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinishi mediatsiya natijasida tuzilgan mediatsiya kelishuvidan tubdan farq qiladi. Demak, hakamlik sudining hal qiluv qarorini ijroga qaratish masalasi vakolatli sudlar tomonidan amalga oshirilishi esa bu ma’lum bir yurisdiksiyaga ega ekanligidan dalolat beradi.

N. Azizovning fikricha, mediativ kelishuv taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda ijro etilishi lozim bo‘lsa-da, unda belgilangan majburiyatlar tegishli tartibda va o‘z muddatida ijro etilmasdi. Bu sud tomonidan manfaatdor tarafning arizasi bo‘yicha ijro varaqasi berish uchun asos bo‘lishi mexanizmi joriy etilishi sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga xizmat qildi [13, 151-b.].

Mazkur fikrga qo‘shilish qiyin, chunki mediatsiya tartib-taomili hakamlik sudida bo‘lgan ish yurituvdagi nizolar bo‘yicha ham qo‘llanishi mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunining 37¹-moddasiga ko‘ra, hakamlik muhokamasida mediatsiya nizoni ko‘rib chiqish jarayonida hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, hakamlik muhokamasining taraflari tomonidan mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish haqida kelishuv tuzilgan taqdirda, hakamlik sudi mediatsiya tartib-taomili tugaguniga qadar hakamlik muhokamasini qoldirish to‘g‘risida ajrim

chiqaradi. Shuningdek, Qonunning 44-moddasi birinchi bandi beshinchi qismiga muvofiq, hakamlik muhokamasining taraflari mediativ kelishuv tuzgan bo‘lsa, hakamlik muhokamasi tugatiladi.

Milliy amaliyotda mediatsiya tartib-taomili qo‘llanishi asosan ikkinchi taraf (javobgar)ning manfaatiga xizmat qiladi. Chunki mediatsiya tartib-taomiliga asosan birinchi taraf (da‘vogar) tomonidan vakolatli sudga yoki hakamlik sudiga berilgan da‘vo arizasi-dan so‘ng ikkinchi taraf xohish-istagining ortishi va davlat bojidan qochish hamda boshqa imkoniyatlarga ega bo‘lishdan manfaatdor bo‘lib kelmoqda. Biroq ushbu mediatsiya tartib-taomili qo‘llanishi natijasida erishilgan mediatsiya kelishuvining talab va majburiyatlarini bajarilmaslik oqibatlarida da‘vogarning sarson bo‘lishi va mediatsiya tartib-taomiliga nisbatan ishonch yo‘qolishi kuzatilmoqda. Qolaversa, javobgar tomonidan ishonchni suiiste‘mol qilinishi natijasida da‘vogarning ayrim huquqlari qo‘pol ravishda paymol qilinishiga olib kelmoqda.

Masalan, birinchi tomondan “Uzbek leasing international A.O.” AJ, ikkinchi tomondan “Zakovat nashriyot uyi” MCHJ, uchinchi tomondan professional mediatordan iborat taraflarning xohish-istagi asosida tuzilgan 6/LM-sonli mediatsiya kelishuviga asosan, 2022-yil 22-iyuldagi Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvda bo‘lgan 4-1001-2201/34076-sonli ish bo‘yicha nizo yuzasidan taraflarning hamkorligi asosida o‘zaro maqbul qarorga erishilgan. Biroq mazkur kelishuv bo‘yicha kelishilgan talab va majburiyatlar ikkinchi taraf tomonidan ixtiyoriy tartibda ijro qilinmagan. Buning natijasida birinchi taraf qaytadan iqtisodiy sudga da‘vo arizasi bilan murojaat qilishga majbur bo‘lgan [14].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur mediativ kelishuv taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda ijro etilishi belgilangan bo‘lsa-da, undagi talab va majburiyatlar tegishli tartibda hamda o‘z muddatida ijro

etilmasligi sud tomonidan manfaatdor tarafning arizasi bo'yicha sud buyrug'i berish uchun asos bo'lishi mexanizmini joriy etish natijasida sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga va yarashuv institutining rivojlanishiga xizmat qiladi, deb aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 135-moddasi birinchi qismi beshinchi bandi va Fuqarolik protsessual kodeksi 171-moddasi birinchi qismi to'qqizinchi bandiga ko'ra, yozma bitim mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan mol-mulkka qaratish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa, sud buyrug'ini berishga asos bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Bitimlar jismoniy va yuridik shaxslarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan, erk-istagi asosidagi xatti-harakatlari bo'lib, ularni amalga oshirish orqali tomonlar muayyan huquqiy oqibatlarga erishishga intiladilar. Masalan, qarzga pul berish qarzga pul bergan shaxsda (qarz beruvchida) qarzni qaytarib olish huquqini, qarzni olgan shaxsda (qarzdor) esa qarzga olgan pulini yoki ashyolarni qaytarish majburiyatini vujudga keltiradi. Bitimning mohiyati subyektning erk izhoriga asoslangan, uning negizida uning irodasi yotadi. Bu esa shaxsning qo'yilgan maqsadga

erishish yo'liga yo'naltirilgan va asoslangan istagidir. Bitim subyektlarining erk-irodasi mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida shakllanadi: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar foyda olish maqsadida tovarlarning sotilishi va xizmat ko'rsatish uchun bitim tuzadilar; fuqarolar bitim tuzish orqali moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondiradilar va h.k [15].

Xulosalar

Nazariy va amaliy tahlillardan kelib chiqqan holda, biz O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasi to'rtinchi bandiga "taraflar o'z huquqlari himoya qilinishini so'rab" degan so'zlaridan keyin "Qonunda nazarda tutgan hollarda sud buyrug'ini berish bo'yicha vakolatli" degan so'zlar bilan qo'shimcha kiritishni taklif qilamiz. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 135-moddasi birinchi qismining oltinchi bandini "Kodeksning 135-moddasida nazarda tutgan hollarda, taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa" degan matn bilan, Fuqarolik protsessual kodeksi 171-moddasi birinchi qismi o'ninchi bandini esa "Kodeksning 171-moddasida nazarda tutgan hollarda, taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa" degan matn bilan to'ldirishni taklif qilamiz.

REFERENCES

1. Ispolneniye i osparivaniye resheniy mezhdunarodnykh kommercheskikh arbitrazhey [Enforcement and challenging of international commercial arbitration decisions]. Commentary on the New York Convention of 1958 and Chapters 30 and 31 of the APC of the Russian Federation of 2002. 2008, pp. 81–85.
2. Gorun D. The Arbitration Decision in the Light of the Legal Provisions: Theoretical and Practical Aspects". *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, 2017, vol. 7, no. 5, pp. 57–58.
3. Otaxonov F.X. Nizolarni muqobil hal qilish – Al'ternativnoye razresheniye sporov [Alternative dispute resolution]. Institute of Legislative Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. A collection of articles. 2022, p. 85.
4. Raxmonqulov X.R., Oqyulov O.O. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Vektor-Press publ., 2010.

5. Modelnyy Zakon o treteyskikh sudakh i treteyskom razbiratelstve (prinyat postanovleniyem Mezhparlamentskoy Assamblei gosudarstv [Model Law on Arbitration Courts and Arbitration Proceedings (adopted by a resolution of the Interparliamentary Assembly of States)]. Members of the Commonwealth of Independent States from November 25, 2016, no. 45-6.
6. Lew J.D.M. Applicable Law in International Commercial Arbitration: A Study in Commercial Arbitration Awards (Oceana Transnational services). New York, Oceana Publ, 1978.
7. Kurochkin S.A. Treteyskoye razbiratelstvo grazhdanskikh del v Rossiyskoy Federatsii: teoriya i praktika [Arbitration of civil cases in the Russian Federation: theory and practice]. Moscow, Vol'tere Kluver publ., 2009, pp. 61–206.
8. Kommentariy k Arbitrazhnomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Arbitration Procedural Code of the Russian Federation]. Ed. A.A. Ivanova. Moscow, 2011, p. 862.
9. Marchenko M.N. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of State and Law]. 2nd ed., revised. and additional. Moscow, 2008, p. 601.
10. Yodgorov X., Saidmuratov B. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi [Procedure for applying to court in civil cases]. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2017, p. 125.
11. Twining. W. Alternative to What? Theories of Litigation, Procedure and Dispute Settlement in Anglo-American Jurisprudence: Some Neglected Classics. *The Modern Law Review*, no. 56 (3), pp. 380–392.
12. Maripova S. Fuqarolik protsessida mediatsiyani qo'llash: qiyosiy-huquqiy tahlil [Application of mediation in civil proceedings: a comparative legal analysis]. PhD thesis. 2022, p. 38.
13. Azizov N.A. Iqtisodiy sudlar tomonidan birinchi instansiyada ish yuritish tartibini takomillashtirish [Improvement of procedure of economic courts in the first instance]. PhD thesis. 2022, p. 151.
14. 6/LM- No. Mediation Agreement. 2022.
15. Raxmonqulov X.R., Oqyulov O.O. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan] 2010, vol. 1, p. 292. Available at: <https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.